

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 348 sahifa.*

*E'lton qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIU professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musayeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Cham Tat Huei, ( PhD ) USCI universiteti professori**, Malayziya

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Ali Konak (Али Күнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari .....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari .....	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili .....	32
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili .....	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi .....	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagи rolini tahlil qilishning zamонавиy yondashuvlari .....	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi .....	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish .....	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni .....	65
Bayanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan .....	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni .....	76
Jusupova Anjim Tansiqaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish .....	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari .....	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budgetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi .....	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli .....	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области .....	109
Мусабоев Рустам Алихонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari .....	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы ..... Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрова	122
Investment Management is an Important Factor of Economic Development..... Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	127
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari..... Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	130
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish..... Toyrova Yunus Alimovich	136
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi..... Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	143
Ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lif sifati va samaradorligini ta'minlash..... Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	148
Budget tashkilotlarida pul mablag'lari nazarat qilishni rivojlantirish yo'llari..... Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	152
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi..... Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	157
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari .....	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level .....	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mehanizmini takomillashtirish yo'llari .....	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari .....	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari..... Razzoqov Bexzod Gofurovich	191
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment..... Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	196
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish .....	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili .....	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati .....	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida..... Umarov Davron Shavkatovich	218
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari .....	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultanboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari..... Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	227



Experience of foreign countries in youth labor market research .....	231
<b>Asqarova Muhabbat Ibraximovna</b>	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash .....	235
<b>Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi</b>	
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili .....	241
<b>Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich</b>	
Oliy ta'lif muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari.....	247
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
<b>Буранова Лола Вахобовна</b>	
Davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish.....	263
<b>Abdurahmanov Otabek Patidinovich</b>	
"To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar" .....	270
<b>Otaxanova Umida Olim qizi</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari.....	275
<b>Sayfulina Alfira Feratovna</b>	
Oliy va xususiy ta'lif muassasalarida ta'lif menejmentini qo'llash hamda alohida mexanizmlarining tahlili.....	281
<b>Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Narzullayeva Gulchehra Salimovna</b>	
Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarishning nazariy asoslari .....	287
<b>Yuldoshev Ulug'bek Asqar o'g'li</b>	
Asosiy vositalarga oid BHXS va MHXSlar maqsadi va amaliyotda qo'llanilishi.....	293
<b>Nematova Dilnoza Azamatovna</b>	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va omillari .....	297
<b>S.M.Xolxo'jayev</b>	
The implementation of eco-tourism in supporting the optimality of tourism sector (case study in Indonesia and Uzbekistan) .....	302
<b>Khalimova Mohirabonu, Alfira Sofia, Diana Igorevna Stepanova</b>	



# ASOSIY VOSITALARGA OID BHXS VA MHXSLAR MAQSADI VA AMALIYOTDA QO'LLANILISHI

Nematova Dilnoza Azamatovna

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining tayanch doktoranti



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz hozirgi bosqichida buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilish, xorijiy investidlarni jaib qilish, moliyaviy hisobtlarning shaffofligini oshirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga uyg'unlash-tirish va keng doiradagi iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq jihatlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, uzoq muddatli aktivlar, moddiy aktivlar va asosiy vositalar.

**Abstract:** This article examines aspects related to the reform of accounting and reporting in our country, attracting foreign investors, increasing the transparency of financial reporting, harmonizing financial reporting with international standards, and implementing large-scale economic changes.

**Key words:** accounting, financial reporting, national accounting standards, international financial reporting standards, long-term assets, tangible assets and fixed assets.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются аспекты, связанные с реформированием бухгалтерского учета и отчетности в нашей стране, привлечением иностранных инвесторов, повышением прозрачности финансовой отчетности, гармонизацией финансовой отчетности с международными стандартами, а также реализацией широкомасштабных экономических изменений.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет, финансовая отчетность, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, долгосрочные активы, материальные активы и основные средства.

## KIRISH

Iqtisodiyotning zamonaviy globalizatsiyasi milliy hisob tizimni xalqaro darajaga yetkazish, moliyaviy hisobtlarning muvofiqligini ta'minlash va o'zaro uyg'unlashtirishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Bu esa moliyaviy hisobotdadagi zaruriy ahborotni olishda o'zaro tafovutlarni muvofiqlashtirishda muhimdir.

Xalqaro amaliyotda kompaniyalar asosiy vositalarini hisob va hisobotda aks ettirish maxsus "Asosiy vositalar", deb nomlangan 16-son BHXS (IAS) bilan tartibga solingan. Bizning respublikamizda, korxonalarning asosiy vositalarini hisob va hisobotda aks ettirish tartiblari 5-son BHMS "Asosiy vositalar" hamda 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'rqnoma"da belgilangan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi paytda amalda bo'lgan ushbu milliy standartlarimiz korxonalar asosiy vositalarga doir xalqaro amaliyotda qabul qilingan ko'plab tartiblarga to'lig'icha mos emas. Shu sababli 16-son BHXS (IAS) da belgilangan tartiblarni amaliyotda qo'llash buxgalteriya xizmati xodimlari tomonidan yangicha bilim va ko'nikmalarini xosil qilishni taqazo etmoqda. Aynan shular hozirgi kunda respublikamizda korxonalar asosiy vositalariga doir 16-son BHXS (IAS)da belgilangan tartiblarni amaliyotga joriy etish yo'llarini chuqr tadqiq etishni dolzarb qilib qo'yemoqda.

Tadbirkorlik subyektlari moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda moliyaviy hisobining xalqaro standartlari (MHXS) tamoyillariga muvofiqligini ta'minlanishi, nafaqat yirik, balki o'rta va kichik korxonalarning boshqaruq qarorlarini qabul qilishda asos sifatida xizmat qiladi. MHXS'lari asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobot ko'proq axborotlarni o'zida mujassamlashtiradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda moliyaviy hisobotlarni tuzishni me'yoriy-huquqiy jihatlarini MHXSga uyg'unlashtirish borasida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi alohida ahamiyat kasb etmoqda.



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish doirasida zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish haqida alohida ta'kidlangan[1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda oxirgi yillarda MHXSlarini korxonalar amaliyotiga joriy etish masalalari borasida ko'plab darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Ular sirasiga olimlarimizdan S.Tashnazarov, D.Narbekov, Sh.Raxmonov, A.Turayev, Sh.Ergasheva, A.Ibragimov, N.Rizayev, I.Ibragimova, J.Qurbanbayev, S.Djumanov, K.Urazov, M.Po'latov, E.Mo'ydinov va boshqalar qalamiga mansub ishlarni kiritish mumkin. Shuhhasiz, ushbu ishlarni respublikamizda asosiy vositalar bo'yicha MHXSlarda belgilangan tartib-qoidalarni korxonalar amaliyotiga joriy etishda muhim o'rinni tutadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

MHXSlarga ko'ra korxonalar asosiy vositalarni hisob va hisobotda aks ettirishning amaliy masalalarini tadqiq qilishda biz tomonimizdan tizimli yondoshuv, deduksiya, induksiya, tahlil, taqqoslash, qiymatni baholashning diskontlash va boshqa usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda respublikamizda buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari, shuningdek, buxgalteriya hisobi tashkil etish prinsiplari va talablarini MHXSning prinsiplari va talablariga uyg'unlashtirish zarur. Xo'jalik yurituvchi subyektlari moliyaviy hisob va hisobotlarini MHXSning asosiy qoidalariiga asosan tuzishi hisobotning shaffofligini ta'minlaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun MHXS talablariga muvofiq ravishda hisobot berish xo'jalik subyektining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga, shu bilan birga, moliyaviy hisoblarning ishonchlilagini oshirish imkonini beradi.

MHXS jadal amaliyotga kirib kelishi natijasida, bir qator muammolar paydo bo'ldi, ya'ni:

- MHXS va BHMS parallel hisob yuritilishi natijasida, buxgalteriya hisobi murakkablashdi;
- mayjud dasturiy mahsulotlar mukammal emasligini ko'rsatdi;
- ikki standart maqsadlari farqlanishi, mamlakatimiz hisobotlari moliyaviy tavsifga ega bo'lgan bir vaqtda, MHXS investorlar uchun eng shaffof ma'lumotlarni taqdim etishga qaratilgan (bunga korxonalar hozirgi kunda tayyor emas).

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi, Soliq Kodeksining 306-moddasi, 5-son "Asosiy vositalar" nomli BHMSning 35-bandiga asosan yer qiymati amortizatsiya qilinmaydi. Shuningdek, 16-son "Asosiy vositalar" BHXSda "Mulk, mashinalar va uskunalar" BHXSning 56-paragrafida yer va bino birga xarid qilinganda ham alohida amortizatsiya qilinadigan qiymat bilan bog'liq holatlар to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan[2].

5-BHMSga asosan asosiy vositalar tarkibiga 0170 schotda "Ish hayvonlari", 0171 schotda yuritilayotgan "Mahsuldar mollar", 0180 schotida "Ko'p yillik o'simliklar" kiritilgan. Jumldan, 16-sonli BHXSda hayvonlar va o'simliklar, 41-son "Qishloq xo'jaligi" BHXSda qishloq xo'jaligiga doir aktivlar hisobi yuritiladi. Sotish uchun tawsiya qilinayotgan mulk, mashinalar va asbob-uskunalar 5-son MHXSda "Sotishga mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat" bilan bilan bog'liq holatlarni o'z ichiga oladi[3].

Demak, xalqaro standartlarga o'tishda biz me'yoriy-huquqiy bazaga o'zgartirishlar kiritishimiz lozim ekanligini ushbu holatlarda yaqqol namoyon bo'lmoxda. Bu holat, auditda to'la va asosli buxgalteriya hisob standartlari asosida olib borilishida auditorlik xulosalari ishonshligini ta'minlanish uchun mutanosibdir. Xalqaro standartlar asosida yuritiladigan moliyaviy hisobotlarga Milliy hisob tizimidagi moliyaviy hisobotlarni uyg'unlashtirish orqali hisobotlarning investitsion jozibadorligini oshirish muhimdir.

Asosiy vositalar hisobini yuritishda alohida o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olgan holda, MHXSlar talablariga muvofiqligini ta'minlash orqali hisobotning ishonchlilagini oshirish zarurdir. Bunda, moddiy aktivlar o'z navbatida, ikkita guruhga ajratiladi: Uzoq muddatli moddiy aktivlar va qisqa muddatli moddiy aktivlardir. Hozirgi amaliyotimizda qo'llanib kelinayotgan "asosiy vositalar" tushunshasi "uzoq muddatli moddiy aktivlar"ning mohiyati va aniqliklarini o'zida mujassamlashtirishi kerak. Bu asosiy vositalar atamasi ushbu uzoq muddatli moddiy aktivlarni qanchalik darajada tavsiflashi muammoli holat, ya'ni misol uchun nomoddiy aktivlar asosiy vosita emasmi, degan savol tug'iladi.

Shu bois, asosiy vositalar tushunshasini yangi bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirish zarurati mavjud, deb o'yaymiz. Fikrimizcha, uzoq muddatli moddiy aktivlar tarkibini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirsak, "Mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar" atamasini amaliyotga kiritish maqsadga muvofiq[4].



Milliy standartlarimizda asosiy vositalarga berilgan ta'rif xalqaro standartda "mulk, bino, mashina, asbob-uskunalar"ga berilgan ta'rifa to'liq muvofiq keladi.

Xalqaro standartga ko'ra "Mulk, mashinalar va uskunalar" obyektlari aktiv sifatida tan olinadi, bunda katta ehtimol bilan ta'kidlash mumkinki, korxona aktivlarni foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy naf oladi va korxona ushun aktivning qiymati ishonchli baholanishi mumkin.

Xalqaro standartlarda "mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar"ni tan olishda bir davrda ko'p vaqt o'tishni talab etadi, deb ko'rsatilgan bo'lsa, respublikamiz milliy standartida bir yildan ortiq deyilgan. Bundan tashqari, milliy standartda O'zbekiston Respublikasida belgilangan minimal ish haqining 50 barobaridan ortiq qiymatdagi buyumlar mulk, mashinalar va asbob-uskunalar sifatida tan olinishi e'tirof etilgan[5]. Fikrimizcha, bu mezonni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni talab etadi.

Har bir korxona o'zining hisob siyosatida bir davrdan ortiq xizmat qiluvchi, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ma'muriy boshqaruv jarayonida foydalanuvchi "asosiy vositalar" tarkibini standart talablaridan kelib chiqib mustaqil belgilashi kerak. Chunki biror-bir kichik korxona uchun qiymati minimal ish haqining 50 barobaridan kam bo'lgan vositalar bo'lishi mumkin. Amaldagi tartibga ko'ra, hozirgi kunda qiymati 50 minimal ish haqidan kam bo'lgan vositalar "asosiy vositalar" sifatida e'tirof etilmasligi natijasida ularga depretsiatsiya hisoblanmay qolmoqda, ularning to'liq qiymati shu davr xarajatlariga kiritilmoqda. Bu jarayonlarni hisob tamoyillariga muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq, deb o'yaymiz[6].

"Asosiy vositalar"ning tarkibi(holatlari)ni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kerak. Xalqaro standartda "Mulk, mashinalar va uskunalar"ning holatlari keltirilgan. Binobarin 5-son "Asosiy vositalar" BHMSda asosiy vositalar tarkibi belgilanmagan. Bu tarkib 21-son BHMSda schotlar rejasidagi asosiy vositalarning tarkiblarga alohida schotlar ajratilgan. Fikrimizcha, 5-son BHXSda "Asosiy vositalar"ning tarkiblarini keltirish kerak.

Mamlakatimiz amaliyotida yer davlatning mulki hisoblanadi. Yerdan uzoq muddatga foydalanish huquqi berilgan. Huquq bo'lganligi bois, bu nomoddiy aktiv sifatida e'tirof etilishi hisob tamoyillariga muvofiq keladi, deb o'yaymiz. Yerni obodonlashtirish, uzoq muddatli ijara olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish xarajatlarini tegishli davrlar xarajatlariga kiritish hisob tamoyillariga muvofiq keladi. Ishchi va mahsuldar mollar, ko'p yillik o'simliklarni biologik aktiv sifatida tan olish tamoyillarini belgilovchi standartlarni ishlab chiqish kerak.

Xalqaro standartda ehtiyyot qismlari va servis asbob-uskunalari odatda zaxira sifatida hisobga olinishi va iste'mol qilinishi mobaynida foya va zararlarda tan olinishi qayd qilingan. Biroq, agar tashkilot ularni bir davrdan ortiq davrda foydalanishni ko'zda tutsa, yirik ehtiyyot qismlar va rezervdagи asbob-uskunalar "asosiy vosita" sifatida tasniflanadi. Analogik tarzda, agar ehtiyyot qismlar va servis asbob-uskunalari "Asosiy vosita" obyektlaridan ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq holda foydalanilgan taqdirda "Asosiy vosita" sifatida hisobga olinadi.

Xalqaro standarda tashkilot "Mulk, mashinalar va uskunalar"ga qilingan xarajatlari ularning sarflanish davrida tan olinishi ko'zda tutilgan. Bular qo'yidagilarni o'z ishiga oladi:

– "Mulk, mashinalar va uskunalar" obyektlarini xarid qilish va jihozlash bilan bog'liq holda sarflangan xarajatlar;

– obyektni boyitish, qisman almashtirish va unga xizmat ko'rsatilishi oqibatida amalga oshirilgan xarajatlar sifatida tan olinadi[7].

Milliy standartda ham mulk, bino, mashina va asbob-uskunalarning qiymatiga to'g'ridan to'g'ri kiritiluvchi xarajatlarni alohida moddada ajratish maqsadga muvofiq, deb o'yaymiz. Bu holat ularning tannarxi oshishi mexanizmini to'g'ri belgilash imkoniyatini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"Asosiy vositalar" deb nomlangan 16-son BHXS(IAS)da belgilangan tartib-qoidalar respublikamizning 5-son BHMSda belgilangan tartib-qoidalardan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Mamlakatimiz korxonalari hisob amaliyotiga mazkur xalqaro standartni joriy etish foydalanuvchilar uchun tadbirkorlik subyektlarining asosiy vositalari to'g'risida har taraflama ishonchli ma'lumotlarni olish hamda ushbu ma'lumotlarda aniq iqtisodiy mantiqni ta'minlash imkonini beradi.

Xorijiy tajribalarga muvofiq kapital xarajatlar aktivlarning xizmat qilish muddati uzayishiga olib kelsa, bunday xarajatlar depretsiatsiya summasini kamaytirishga moslashtiriladi. Natijada aktivlarning boshlang'ich qiymati o'zgarmaydi, uning qoldiq qiymati esa ushbu kapital xarajatlar summasiga oshadi.

Amaliyotda kapital ta'mirlash xarajatlarini ishlab chiqarish yoki davr xarajatlariga kiritish ko'rsatilgan. Xalqaro standartlar talabalaridan kelib chiqib, kapital ta'mir mehnat unumdonligi oshishi yoki mahsulot sifati yaxshilanishiga olib kelsa, uni "Mulk, mashinalar va uskunalar" qiymatida hisobga olish maqsadga muvofiq, deb o'yaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.02.2020 й. ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. lex.uz.
2. БХХС (IAS) 16 “Асосий воситалар”. nrm.uz.
3. МХХС (IFRS) 5 “Сотиш учун мўлжалланган оборотдан ташқари активлар ва тугатилган фаолият”. staff.tiame.uz.
4. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўкув юртлари магистратура мутахассисларни учун дарслик.– Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”. 2019.– 584-6.
5. Уразов К.Б., Пўлатов Э.М. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик.– Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi”, 2021.– 560 бет.
6. Нематова Дилноза Азаматовна, Корректировка Счета Основных Средств На Международные Финансовые Стандарты, Central asian journal of innovations on tourism management and finance, Volume: 04 Issue: 09 | 2023 ISSN: 2660-454X.
7. <https://cajimf.centralasianstudies.org>.
8. <http://www.gaap.ru>.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

